
DOIMIY KOMISSIYALAR TASDIQLANDI

Tuman kengashi sessiyasi

Bugun Rishton tumani hokimligi majlislar zalida Yettinchi chaqiriq xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining navbatdagi 2-sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiya ishida tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimining o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalalarga aloqador mas'ul xodimlar, OAV xodimlari ishtirok etdilar.

Sessiya kun tartibida quyidagi masalalar kurib chiqildi.

- Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha kelib tushayotgan murojaatlar va hokim yordamchilari faoliyatining natijadorligi to'g'risida 2024-yil 9 oy davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rishton tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri Sh.Rahimovni axboroti. - Rishton tuman adliya bo'limining 2024-yil 9 oy davomida tumandagi davlat organlari va tashkilotlarida norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati bo'yicha Rishton tuman adliya bo'limi boshlig'i I.Isafov axboroti.

- Tuman xududida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 714/32-son qarori va mazkur qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha Farg'ona viloyati hokimining 2024-yil 12-yanvardagi 12-11-0-Q/24-son qarori ijrosi yuzasidan tuman sektor rahbarlarining hisobotlari.

- Rishton tumani hududida huquqbuzarliklarni oldini olish jinoyatchilikga qarshi kurashish bo'yicha 2024 yil 9 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman IIB boshlig'i Sh.Mavlonov hisoboti.

- Rishton tumanida 5-bosqich "Ayollar daftari" doirasida 2024 yilning 11 oyi davomida amalga oshirilgan ishlari va muammolari hal etilgan xotin-qizlarni "Ayollar daftari" ro'xatidan chiqarish to'g'risida Oila va xotin-qizlar bo'limi bosh mutaxassisi D.Yigitaliev hisoboti.

- Rishton tuman mahalliy byudjetning 2024-yil 9-oylik ijrosi hamda 2024-yil 9 oy davomida tuman mahalliy byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasiga kiritilgan o'zgarishlar to'g'risida tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i I.Djo'raev axboroti.

- Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi kotibiyatining nizomini tasdiqlash to'g'risida.

- Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashida ish yuritish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida.

- Xalq deputatalir Rishton tuman Kengashining doimiy komissiyalarini tashkil etish va komissiyalar tarkibini tasdiqlash to'g'risida Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashi kotibiyati mudiri A.Sobirov axboroti.

- boshqa masalalar

????Sessiya davomida kun tartibiga kiritilgan masalalar ko'rib chiqilib, sessiya yakunida kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

2024-12-20 13:32:21